

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**ANALYSIS OF IMAGES IN HUSAYN FATTAHI'S STORY “قصه ای که راست بود”****Dinara Azimdjanova**

PhD, Associate Professor

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

Shakhrizoda Karimkhojayeva

Student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE**Key words:** and phrases: Iran, flower girl, blind boy, Pinocchio, Pahlavon Rustam, shop.**Received:** 28.05.23**Accepted:** 30.05.23**Published:** 01.06.23**Abstract:** This article partially examines the life and work of Hussein Fattahi. The analysis of the words and images of the characters of his story *قصه ای که راست بود* – “True story” was carried out.**HUSAYN FATTOHIYNING “قصه ای که راست بود” HIKOYASIDAGI OBRAZLAR TAHLILI****Dinara Azimdjanova**

PhD, Dotsent

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Shahrizoda Karimxo'jayeva

Talaba

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA**Kalit so'zlar:** Eron, gul sotuvchi qiz, ko'zi ojiz bola, Pinokio, Pahlavon Rustam, do'kon.**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Husayn Fattohiyning qisman hayot va ijodiga *قصه ای که راست بود* - to'xtalangan. Uning “Bo'lgan voqea” hikoyasi qahramonlari so'zlari va obrazlari tahlili amalga oshirilgan.**АНАЛИЗ ОБРАЗОВ В РАССКАЗЕ ХУСЕЙНА ФАТТАХИ “قصه ای که راست بود”****Динара Азимджанова**

PhD, доцент

Ташкентский государственный университет востоковедения
Ташкент, Узбекистан

Шахризода Каримходжаева

Студент

Ташкентский государственный университет востоковедения
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: и фразы: Иран, цветочница, слепой мальчик, Буратино, Пахлавон Рустам, магазин.

Аннотация: В данной статье частично рассмотрены жизнь и творчество Хусейна Фаттахи. Проведен анализ слов и образов персонажей его рассказа *قصه ای که راست بود* – «Реальная история».

KIRISH

Husayn Fattohiy 1957-yilning aprel oyida Eronning Yazd o‘stonidagi qishloqlarining birida tug‘ilgan va boshlang‘ich ta‘limni qishloqda olgan. Keyinchalik u Yazddagi litseylardan birida o‘qishini davom ettirdi. O‘qishni tamomlagach, universitetning buxgalteriya bo‘limiga qabul qilindi. Lekin u hech qachon rasman bu sohada faoliyat yuritmagan. U 1979-yilgi islom inqilobi boshidanoq yozuvchilikka murojaat qilgan va o‘smirlar uchun asarlar yozishni boshlagan. Husayn Fattohiy shu vaqt ichida aynan o‘smirlar uchun ko‘plab asarlar yarata oldi.

ASOSIY QISM

Asarlarining eng muhimlari va mashhurlari quyidagilardan iborat:

- 1) مدرسه انقلاب (“Inqilob maktabi”)
- 2) کودک و طوفان (“Bola va Bo‘ron”)
- 3) آتش در خرمن (“Xirmanda yong‘in”)
- 4) امیر کوچولوی هشتم (“Sakizinci Amir Kuchulu”)

Aytish mumkinki, Husayn Fattohiyning eng yaxshi asarlaridan biri “Qaroqchilar” rahznh, haqidagi uzun qissasidir. Qaroqchilarning tasvirlanishi juda qiziqarli va insonni o‘ziga tortadigan qilib yozilgan. Fattohiy nafaqat bu asarlari bilan, balki boshqa ko‘plab qiziqarli hikoyalarning ham muallifidir. Uning asarlarida o‘zgacha uslubga murojaat qilinganining guvohi bo‘lish mumkin. U asarlarda fantastik elementlardan foydalanib, tarbiyaviylik, yaxshi xulq-atvor, to‘g‘ri so‘zlik kabi xususiyatlarni keng ifoda qilib bera olgan va targ‘ib qilgan. Inson kichik bir hikodan katta taassurot olishi mumkin. Ana shunday ezgulikni tarannum qiladigan asarlaridan biri – *قصه ای که راست بود* “Bo‘lgan voqea” hikoyasidir.

Hikoya suvenirlar sotiladigan do'koncha tasviri bilan boshlanadi. Tun kirishi bilan do'kondagi buyumlar jonlana boshlaydi. Hikoyadagi bosh qahramonlardan biri "*do'xtare go'lfo'rush*" – Gul sotuvchi qiz va "*Pesarake nobino*" – Ko'zi ojiz bolakaydir. Gul sotuvchi qiz xitoy suveniri sifatida tasvirlangan bo'lib, uning qo'lida gul to'ldirilgan savatchasi ham bor. U tunda jonlanganidan so'ng savatidagi gullarni do'kon bo'ylab aylanib sotib yuradi. Ko'zi ojiz bola ham spool suvenir bo'lib, u boshqalardan pul – ya'ni nochorligi tufayli sadaqa so'rab yurar edi. Gul sotuvchi qiz ko'zi ojizligi sababli har tunda u bolaning oldiga borib, unga ko'maklashar, uni o'zi bilan olib yurardi va unga atrofdagi barcha bo'layotgan voqealarni so'zlab berardi. Bu epizod o'smirlarga o'zgalarga yaxshilik qilish xislatini yanada oshirishga yordam beradi. Hikoyaning diqqatga sazovor tomonlaridan biri, bu hikoyada boshqa mashhur asarlar qahramaonlari ham harakatlanib, ishtirok etishidir. Ya'ni ko'plab dunyoga mashhur bo'lgan ertak qahramonlarini ham uchratishimiz mumkin: Pinokkio, Rustam pahlavon, Bir ko'zli qaroqchi va boshqalar.

Voqea aynan gul sotuvchi qiz va ko'zi ojiz bola aylanib yurgan joydan boshlanadi. Gul sotuvchi qiz har doimgidek ko'zi ojiz bolaga nimalar bo'layotganini aytib borardi. Masalan suratlarda jonlangan sakkiz boshli ajdarholar, u bilan jang qilayotgan pahlavonlarni ko'zi ojiz bolaga tasvirlab beradi.

Har bir hikoya yoki har bir asarda kulminatsion nuqtalar mavjud. Bu asarda ko'plab kulminatsion nuqtalarga guvoh bo'lamiz. Ulardan birinchisi – qizaloq va yigitcha sayr qilib yurganda malika ot-aravasining ovozi eshutilishidan boshlanadi. Malika ot aravasi bilan ularning yonidan o'tayotganida ko'zi ojiz bolaga bir tanga tashlab o'tadi. Bundan, albatta, ko'zi ojiz bola xursand bo'ladi, negaki unga oltin tanga berildi deb o'ylaydi. Afsuski gul sotuvchi qiz tangani oddiy tanga ekanligi va tilla emasligini aytganida yigitcha unga ishonmaydi. Qiz tangani almashtirib qo'ygan deb gumon qiladi va uni ayblaydi.

Ko'zi ojiz bolaning gul sotuvchi qizga ishonmasligi, uni ustidan qoziga borib arz qilishni xohlashi hikoyada juda ta'sirli yoritib berilgan. Yuqorida boshqa ertak bosh qahramonlarining ham hikoyada tilga olinganini aytib o'tgan edik. Ko'zi ojiz bola gul sotuvchi qizning ustidan shikoyat qilish uchun u bilan qozining oldiga borishga qaror qilishadi va yo'llarida aynan ko'plab mashhur ertak qahramonlariga guvoh bo'lishadi. Ulardan eng birinchisi "Oltin kalitcha" ertagining bosh qahramoni Pinokiodir. Ular Pinokioni yo'l-yo'lakay uchratib qolishadi. Bo'lgan voqealarni unga aytib berishadi va u albatta ko'zi ojiz bolaga bu fikridan qaytishini va yana bir marta yaxshilab o'ylab ko'rishini aytadi. Pinokioning:

پسرک نابینا می دانی اگر دروغ بگویی چه میشود؟! به دماغ دراز من نگاه کن! من
سالها پیش یک دروغ گفتم و به خاطر آن دروغ دماغم دراز شد. ا.. از آن زمان دماغم
همانطور دراز مانده است و جلوی همه خجالت زده هستم. دیگر همه می دانند که من دروغ
گفته ام

“Mening uzun burnimga qara! Bir necha yil oldin yolg‘on gapirdim va shu tufayli u uzunlashdi. Ushandan buyon burnim uzun bo‘lib qolgan va men hammaning oldida uyatdaman. Endi hamma mening yolg‘on gapirganimni biladi.”

Pinokioning yolg‘on so‘zlari nima oqibatlariga olib kelganini va bundan qattiq afsusda ekanini aytadi. Oddiy kichik jumalardagi ma‘no-mazmun insonni o‘ylantirmay qo‘ymaydi.

Ko‘zi ojiz bolaning tangani oltin emasligiga ishonmasligi Pinokioning gaplariga ahamiyat bermaganidan dalolat beradi. Ular yo‘lida davom etishadi. Endi ularning yo‘lidan Pahlavon Rustam chiqadi. Unga ham bo‘lgan voqeani tushuntirib berishadi. Albatta pahlavon Rustam ham qizning yolg‘onchiligiga ishonmaydi. U ham ko‘zi ojiz bolaga bu noto‘g‘ri fikridan qaytishi kerakligini nasihat qiladi. Yozuvchining boshqa ertak qahramonlari tilidan pand-nasihat qilishidan uning mahoratini ko‘rishimiz mumkin. Rustamning nasihatlarini quyidagicha:

پسر جان در اين دنيا يك چيز پايدار است و آن مردانگي است. نام نكو از آن مردان

راستگوست تا به چيزي اطمينان نداری نگو

“O‘g‘lim, bu dunyoda barqaror tugamas bir narsa borki bu ham erkaklikdir. Ishonching komil bo‘lmasa hech qachon, hech nima dema!”

Bu so‘zlarni hatto oxiriga yetkazmasidan ko‘zi ojiz bola uni tinglamay, yo‘lni davom ettiradi. Gul sotuvchi qiz Pahlavon Rustam bilan xayrlashib, ko‘zi ojiz bolaning orqasidan yo‘lga tushadi. Qiz uning yiqilib tushishidan juda xavotir oladi. Ko‘zi ojiz bolaning faryodini bir ko‘zi bog‘langan qaroqchi eshitib qoladi va nima bo‘lganini so‘raydi. Oltin tangam yoqoldi deb faryod chekayotgan ko‘zi ojiz bolaning so‘zlarini eshitgan bir ko‘zli qaroqchi oltin bo‘lsa ayt kim oldi o‘zim topib beraman deb aytadi. Gul sotuvchi qizni ishora qilib ko‘rsatganida, qaroqchi kulib yuboradi va shunday deydi:

پسر جان در دنيا دو چيز ميماند خوبي و بدی. من اشتباه کردم. تمام عمرم را به راهزنی

گذراندم و حالا تا ابد بايد به شكل يك راهزن باقي بمان

“O‘g‘lim bu dunyoda ikki narsa qoladi yaxshilik va yomonlik. Men xato qildim. Umrimga qaroqchilik bilan o‘tkazdim va hozir abadiy shunday bir qaroqchi bo‘lib qolaman.”

Shu o‘rinda qaroqchining o‘z hayotidan afsusdaligi haqidagi pushaymon so‘zlari juda ta’sirli darajada yozilgan.

Ko‘zi ojiz bolaning ko‘zlari emas, balki qalbi ham ko‘rmay qolgandek edi. U yana so‘zlarga ahamiyat bermay askarlar oldiga gul sotuvchi qiz bilan yetib kelishdi. Ikkita nayza ko‘targan kumush askarlar ularni kutib olishdi. Bo‘lgan voqeani shoshilib aytgan ko‘zi ojiz bolaning gaplaridan so‘ng gul sotuvchi qizni hibsga olishdi va uni qafasga tashlashdi. Hamma qafas oldiga yig‘ilgan, hammaning ko‘zida, ichida qayg‘u. Hamma qozining kelishini kutardi. Lekin bir kun oldin do‘kon egasi qozini sotib yuborgan ekan. Shu bilan ular yangi qozini kelishini kutadilar.

Oradan bir kun o'tgach do'kon egasi yangi qozi suvenirini olib keladi. Kech tushgandan so'ng yana hamma suvenirilar jonlanadi. Yangi qozi qanday qaror chiqarishini hamma intizor kutayotgan edi. Yangi qozi qizni tintuv qilishni buyuradi. Askarlarning biri uning cho'ntaklarini titkilasa yana biri savatini yerga uloqtirib tangani qidirardi. Bir tilla tanga gul sotuvchi qizning savatidan tushadi. Buni ko'rgan qozi tilla tanganing qayerdan kelib qolganini so'raydi. Qiz buni unga Gulniso xolaga gul sotgani uchun berganini aytadi. Arofdan hikoyada tilga olingan barcha yig'ilgan edi. Qizchaning gaplarini Gulniso xola tasdiqlaydi. Shundan so'ng qozining buyrug'i bilan malikaning yoniga u bergan tanga oltin yoki oddiy ekanligini bilish maqsadida Pahlavon Rustam yuboriladi.

Pahlavon Rustam xursand ohangda qaytib, malika oddiy tanga berganini aytadi. Shundan so'ng hamma xursand, gul sotuvchi qiz ham endi ozod. Lekin endi ko'zi ojiz bola juda xijolatda qoladi. Uning bu qo'ygan ayblovini kechirib bo'lmaydi. Chunki u o'z do'stini o'g'rilikda ayblagan edi-da. Uning ko'zlari balki ojizdir, lekin qalbichi? Afsus buni anglab yetganida kech bo'lgan edi, shunda ham gul sotuvchi qiz undan xafa bo'lmaydi. Ko'zi ojiz bola yolg'iz o'zi qo'lida kitob ushlab turgan ruhoniylar rasmi yonida turar edi. Nur taralayotgan ruhoniylar ko'zi ojiz bolaning qalbidan nimalar o'tayotganini his etdi. To'satdan u qo'llarini ko'zi ojiz bolaning ko'zlari ustiga qo'yib, siladi. Ko'zi ojiz bola xuddi tok urib o'tgandek tuyg'uni his qildi. Birdan uning ko'zlari ko'rishni boshladi. Hikoya qahramoni – yigitcha ozgina vaqtliroq o'z xatosini anglab yetganida, balki voqealar yakuni butkul boshqacha bo'lar edi. Garchi hikoya yakunida uning ko'zlari ko'rishni boshlagan bo'lsa-da, lekin yaqin insonini, do'stini yoqotdi.

XULOSA

Qissadan hissa shuki, inson xato qiladi va buni o'zi sezmaydi. Anglaganida esa kech bo'ladi. Lekin hikoya xuddi ertaklardagidek baxtli yakunlanadi deya olmaymiz. Unga qanday xulosa berishni adib kitobxonda qoldiradi.

Hikoyani o'qish davomida tahlil va xulosa qiladigan sahnalar ko'p ekanligini bilib olamiz.

Bu hikoya bolalar va o'smirlarda fikrlash, tahlil qilish, avval tafakkur qilib, keyin xulosa chiqarishga undaydi. Unda ertak unsurlari ko'plab uchraydi. Qolaversa adabiyotning asosiy vazifalaridan biri – estetik zavq bag'ishlaydi. Asar hayotni go'zallashtirish, yaqinlarimizga, do'stlarimizga sadoqatni va ishonch tuyg'ularini asrash, saqlab qolishga yordam beradi. Yozuvchi Husayn Fattohiy asar nomini bekorga “قصه ای که راست بود” – “Bo'lgan voqea” deb nomlamagan. Bunday voqealar hayotda juda tez-tez uchrab turishiga ishora qilmoqchi bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. میترا بیات: دب داستانهای کوتاه امروز به کوشش: نام کتاب

انتشارات بین المللی الهدی نوبت چاپ چاپ اول ۱۳۷۳: ناشر. 2.